

## “NKMK” AJ faoliyatida monopoliyaga qarshi Komplayens tizimi faoliyati bo‘yicha

“Navoiy kon metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyat (“NKMK” AJ, *Jamiyat*) hamda Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi hamkorligida tizimda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzilishi xavflarini kamaytirish maqsadida 2025 yil uchun **9 ta** banddan iborat “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

“NKMK” AJ faoliyatida monopoliyaga qarshi kurashish va uning talablarini buzilishi hamda boshqa salbiy oqibatlar yuzasidan xabar beruvchilar uchun jamiyatning rasmiy veb-saytida alohida aloqa kanallari tashkil etildi va hozirda faoliyat olib borilmoqda.

Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish, monopoliyaga qarshi Komplayens tizimini samarali tashkil etish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va jamiyat ishchi-xodimlari ishtirokida davra suxbatlari va brifinglar o‘tkazib kelinmoqda.

“Yo‘l xaritasi”ning 2-bandi ijrosi bo‘yicha 2025 yilning 6 oyi davomida monopoliyaga qarshi Komplayens xizmatini ma’sullari tomonidan Jamiyat ishchi xodimlari orasida Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi xuzuridagi Raqobat siyosati va iste’molchilar xuquqlari tadqiqotlari markazi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanmalar asosida jami **61** marotaba o‘quv seminar huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibot tadbirlarida **6342** nafar ishchi-xodimlar ishtiroki ta’minlandi.

Shuningdek, Komplayens xizmati monopoliyaga qarshi Komplayens xizmatini ma’sullari tomonidan 2025 yilning mart oyida “**Qizilqum**” kon boshqarmasi **22 nafar** markaziy buxgalteriya va moddiy-texnik ta’minot bo‘limi xodimlariga hamda aprel oyida “**Janubiy**” kon boshqarmasining **30 nafar** markaziy buxgalteriya ishchi-xodimlariga O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunchiligiga oid test sinovlari o‘tkazildi.

Test sinovlari yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonunchiligiga oid bilim saviyalarini, malaka va ko‘nikmalari oshirish maqsadida muntazam ravishda o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish lozimligi borasida Komplayens xizmati monopoliyaga qarshi Komplayens xizmatini ma’sullari tomonidan Kon boshqarmalari raxbarlariga xizmat xatlari yuborildi.

“NKMK” AJ faoliyatida Komplayens xizmati ma’sullari tomonidan kelgusida ham Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasi hamkorligida tizimda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi xavflarini kamaytirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borilishi ma’lum qilinadi.

**“NKMK” AJ Komplayens  
xizmati boshlig‘i**



R.F.Avezov